

## KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Saribayeva Azadajan Baratbayevna**

Namangan davlat texnika universiteti

“Menejment” kafedrası

katta o‘qituvchisi

E-mail: [sariboyeva-o@umail.uz](mailto:sariboyeva-o@umail.uz)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida Namangan viloyati misolida 2017-2024-yillardagi xorijiy investitsiyalar oqimi, kichik biznesning investitsion faolligi, bandlik va eksport ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Xorijiy kapitalning kichik biznes subyektlari samaradorligiga ta’siri statistik va korrelyatsion tahlil usullari yordamida baholandi. Tadqiqot natijalari xorijiy investitsiyalar kichik biznesning texnologik yangilanishi, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo‘lganini ko‘rsatdi. Investitsion Samaradorlik Indeksi modeli ishlab chiqildi hamda hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, xorijiy investitsiya, FDI, investitsion muhit, eksport, bandlik, investitsion samaradorlik, institutsional mexanizm, iqtisodiy rivojlanish.

### Аннотация

++.

**Ключевые слова:** малый бизнес, иностранные инвестиции, FDI, инвестиционный климат, экспорт, занятость, инвестиционная эффективность, институциональный механизм, экономическое развитие.

### Abstract

++.

**Keywords:** small business, foreign investment, FDI, investment climate, export, employment, investment efficiency, institutional mechanism, economic development.

### KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari iqtisodiy o‘shishning drayveri, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi institut, bandlikni ta’minlovchi asosiy ijtimoiy qatlam va mahalliy iqtisodiy infratuzilmaning mustahkam bo‘g‘ini sifatida qaralmoqda [1]. Kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi oshgani sari, ularning moliyaviy barqarorligi va innovatsion faoliyati uchun barqaror investitsion oqim zarurati kuchaymoqda. Bu jarayonning muhim tarkibiy qismi - xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirishdir, chunki ular ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, eksport salohiyatini kengaytiradi va xalqaro texnologiya transferini jadallashtiradi [2].

Jahon bankining 2024-yilgi Global Investment Competitiveness Report ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlarining 38 foizdan ortig'i kichik va o'rta biznes sektori hissasiga to'g'ri keladi [3]. Bu esa

To'g'ridan to'g'ri horijiy investitsiyalar (TTHI) ning endi faqat yirik korporatsiyalar emas, balki kichik korxonalar uchun ham global iqtisodiy o'sishning asosiy moliyaviy manbaiga aylanganini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy sarmoyadorlar kichik biznesga yo'naltirayotgan investitsiyalarini moliyaviy xavf past, lekin innovatsion rentabellik yuqori bo'lgan sohalarga qaratmoqda. UNIDO (2024) hisobotida qayd etilishicha, TTHIning KOB sektoriga yo'naltirilgan har bir 1 milliard dollarlik oqimi 45 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratish va ishlab chiqarishning qo'shimcha 2,5 foizlik o'sishini ta'minlaydi [4].

O'zbekiston iqtisodiy tizimi uchun kichik biznesning ulushi 2024-yilda YaIMning 56 foizini tashkil etgani holda, bu sohada xorijiy kapital ulushi atigi 11-12 foiz atrofida bo'lib qolmoqda. Bu raqamlar xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining mavjud salohiyatdan to'liq foydalanmayotganini anglatadi. Shu bois, mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, investorlarga kafolatli huquqiy himoya, soliq rag'batlari, shaffof litsenziyalash tizimi va "bir darcha" tamoyiliga asoslangan xizmatlar orqali investitsiya oqimini rag'batlantirish zarurati tug'ilgan. Bu yo'nalishda 2026-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati konsepsiyasi investitsiya boshqaruvini modernizatsiya qilish, raqamli tahlil tizimlarini joriy etish va hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan kompleks choralarni belgilab berdi [5].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda rivojlantirish, klaster modelini kengaytirish va ishlab chiqarish tarmoqlarida innovatsion hamkorlik mexanizmlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu siyosat natijasida 2024-yilda mamlakat iqtisodiyotiga 22 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilindi, bu esa 2018-yilga nisbatan 2,3 baravar ko'pdir [6]. Ayniqsa, sanoat, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash tarmoqlarida xorijiy kapital ishtiroki sezilarli darajada oshgan.

Bundan tashqari, UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng jadal investitsion o'sishga ega bo'lgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Bu natija mamlakatda investorlar uchun kafolatli huquqiy himoya tizimi, investitsion shartnomalar ijrosining xalqaro normalarga mosligi va investitsiya arbitraji tizimining shakllanayotganini ko'rsatadi [7]. Xususan, OECD'ning Investment Policy Review of Uzbekistan hisobotida mamlakatdagi investitsion qonunchilikning shaffofligi, soddalashtirilgan soliqqa tortish mexanizmlari va "raqamli investitsiya pasporti" tizimi xalqaro amaliyot bilan uyg'unligi jihatidan yuqori baholangan.

Shunga qaramay, ayrim strukturaviy muammolar - investitsion loyihalarni hududlar kesimida notekis taqsimlanishi, byurokratik kechikishlar, mahalliy kadrlar salohiyatining yetarli emasligi va moliyaviy infratuzilmaning zaifligi - xorijiy sarmoyaning kichik biznes sektorida to'liq ishlatilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, mavjud mexanizmlarni institutsional islohotlar asosida takomillashtirish,

hududiy investitsion infratuzilmani rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida yangi moliyalashtirish vositalarini joriy etish zarurdir.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalari bo'yicha ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalish iqtisodiyotning globallashuvi, kapital harakatchanligi va texnologik raqobatning kuchayishi sharoitida markaziy tadqiqot mavzusiga aylangan. Lee, Chernikov va Nagy o'z tadqiqotlarida Janubiy Koreya investitsiyalarining MDH mamlakatlari bozorlaridagi joylashuv omillarini aniqlab, O'zbekiston uchun xorijiy sarmoya oqimining asosiy determinantlari sifatida geografik afzallik, bozor hajmi, siyosiy barqarorlik va transport infratuzilmasining mavjudligini ta'kidlaydi [7]. Ularning empirik modeli (FE/RE) asosida aniqlangan natijalar kichik biznesni rivojlantirish uchun logistika tizimi va energetik infratuzilma investitsion jozibadorlikda hal qiluvchi rol o'ynashini isbotlaydi.

Muneeb esa rivojlanayotgan davlatlarda kichik va o'rta biznesning muvaffaqiyat omillarini o'rganar ekan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari korxonaning ichki boshqaruv sifati, raqamli moslashuvchanlik darajasi va moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liqligini asoslab beradi [8]. Unga ko'ra, kichik biznesning investorlar oldidagi ishonchliligi yuqori texnologik daraja, moliyaviy shaffoflik va korporativ boshqaruv tizimining yetukligi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida TTHI oqimini kengaytirish uchun kichik biznes subyektlarida raqamli transformatsiyani jadallashtirish va elektron moliyaviy hisobot tizimlarini joriy etish zaruriyati mavjud.

Otabaev tadqiqotida xorijiy kapitalning ishlab chiqarish tarmoqlariga kiritilishi natijasida texnologik yangilanish, mehnat unumdorligi va mahsulot sifati oshganini ko'rsatadi [9]. Shu bilan birga, muallif kichik biznes sektoriga yo'naltirilgan sarmoyalar ulushi pastligicha qolayotganini ta'kidlaydi. Bu esa xorijiy investitsiyalarni qayta taqsimlashda kichik korxonalar ustuvorlik berish, ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va imtiyozli kredit liniyalarini joriy etish zaruratini ko'rsatadi. Gyan esa TTHIning startap va kichik korxonalar ikki tomonlama ta'sirini ko'rsatgan: bir tomondan, xorijiy kapital texnologiya va menejment innovatsiyalarini olib kiradi, biroq ikkinchi tomondan, "crowding-out" effekti natijasida mahalliy kichik korxonalar raqobat maydonidan siqib chiqilishi mumkin [10].

D'Ambrosio O'zbekiston kontekstida xorijiy investitsiyalar va tadbirkorlik faolligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik ravishda o'rgangan bo'lib, investitsion siyosatda huquqiy kafolatlarning kuchaytirilishi tadbirkorlik faolligini 1,4 baravar oshirganini aniqlaydi [11]. Bu natija shuni anglatadiki, TTHI oqimi faqat moliyaviy emas, balki institutsional barqarorlikka ham bevosita bog'liqdir. Nguyen o'z tadqiqotida TTHIning kichik biznesdagi tadqiqot va innovasiya faoliyatiga ta'sirini baholab, rivojlangan mamlakatlarda "crowding-in" effekti (xorijiy kapital ichki innovatsiyalarni rag'batlantiradi) kuchliroq, rivojlanayotgan davlatlarda esa bu mexanizm sustroq ishlashini aniqlagan [12]. O'zbekiston uchun xorijiy

investitsiyalarni ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog'lovchi fiskal rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish muhimdir.

Suyunov tomonidan olib borilgan tahlilda TTHI va bank kreditlari o'rtasidagi bog'liqlik O'zbekistonda bandlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aniqlangan [13]. Muallifning hisob-kitoblariga ko'ra, xorijiy sarmoya kiritilgan tarmoqlarda ish o'rinalari soni 1,7 baravar oshgan, bu esa kichik biznes faoliyati orqali ichki talabning kengayishiga olib kelgan.

OECD tomonidan tayyorlangan Insights on the Business Climate in Uzbekistan hisobotida esa mamlakatning investitsion muhitini xalqaro me'yorlarga yaqinlashtirish borasida sezilarli yutuqlar qayd etilgan bo'lsada, hali ham litsenziyalashdagi ortiqcha byurokratiya, soliq ma'lumotlarining shaffof emasligi va raqamlashtirishning sustligi muhim to'siqlar sifatida ko'rsatiladi [14].

Ushbu adabiyotlar sintezi shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligi ko'p omilli va o'zaro bog'liq tizimdir: huquqiy barqarorlik, iqtisodiy ishonch, infratuzilma sifati, raqamli tayyorgarlik va inson kapitali darajasi bu jarayonning asosiy determinantlaridir. Aynan shu omillarni uyg'unlashtira olgan mamlakatlar - Janubiy Koreya, Malayziya va Turkiya singari - kichik biznesga yo'naltirilgan TTHI oqimini barqaror ushlab turishga muvaffaq bo'lgan.

O'zbekiston uchun asosiy muammo kichik biznes subyektlarining global kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi, investitsiya risklarini sug'urtalash tizimining sustligi va mintaqaviy investitsiya infratuzilmasining nomutanosibliigidadir. Shu bois, davlat tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yurituvchi investitsion fondlarni kengaytirish, mintaqaviy investitsiya agentliklarini qo'llab-quvvatlash va transmilliy korporatsiyalar bilan texnologik kooperatsiya mexanizmlarini yaratish zarur.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi kompleks, tizimli va ko'p bosqichli ilmiy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning nazariy asosini to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar nazariyasi, iqtisodiy o'sish modeli (Solow-Swan), institutsional iqtisodiyot yondashuvi hamda klasterlash va innovatsion rivojlanish konsepsiyalari tashkil etdi. Metodik jihatdan tadqiqot deskriptiv, analitik va empirik bosqichlarga ajratilib, avvalo nazariy adabiyotlar sintez qilindi, so'ngra xorijiy investitsiya oqimlari, ularning tarmoqlar va hududlar kesimidagi taqsimoti, kichik biznes ulushi hamda investitsion samaradorlik ko'rsatkichlari statistik va iqtisodiy tahlil usullari yordamida baholandi.

Empirik bosqichda O'zbekistonning 2015-2024-yillar oralig'idagi mintaqaviy va tarmoq kesimidagi investitsiya ma'lumotlari asosida panel ma'lumotlar regressiyasi hamda korrelyatsion tahlil qo'llanildi. Asosiy o'zgaruvchilar sifatida kichik biznesning yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi, xorijiy investitsiyalar hajmi, yangi tashkil etilgan korxonalar soni va bandlik darajasi o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda Namangan viloyati va uning tumanlari misolida 2015-2024-yillar davrida yashil iqtisodiyot tamoyillarining korxonalar strategik boshqaruv tizimlariga integratsiyalashuvi holati tahlil qilinadi. Tahlilning maqsadi - viloyat miqyosida iqtisodiy, ekologik va innovatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, yashil investitsiyalar hajmining o‘shish sur‘atlarini baholash hamda strategik menejment tizimining barqaror rivojlanishga ta‘sirini empirik asosda namoyish etishdan iborat. Shu maqsadda 2015-2024-yillar oralig‘idagi o‘n yillik ma‘lumotlar asosida ikki murakkab jadval shakllantirilib, ularda korxonalar faoliyatining ekologik samaradorlik, qayta tiklanuvchi energiya ulushi va chiqindilarni qayta ishlash darajasi kabi indikatorlar chuqur tahlil qilindi. Natijalar hududiy tafovutlarni aniqlash va strategik menejmentni yashil iqtisodiyot tamoyillariga moslashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

### 1-jadval

**Namangan viloyatida TTHI oqimlari va KO‘B ko‘rsatkichlari dinamikasi<sup>1</sup>**

Yil	Umumiy TTHI, mln AQSh dollarda	KO‘B ulushi, foizda	KO‘Bning TTHI, mln AQSh dollarda	Xorijiy kapital ishtirokidagi KOB soni, dona	O‘rtacha TTHI/KO‘B, ming AQSh dollarda
2017	180	35	63.0	220	286
2018	210	36	75.6	250	302
2019	240	38	91.2	290	315
2020	260	40	104.0	320	325
2021	330	42	138.6	380	365
2022	390	44	171.6	430	399
2023	460	46	211.6	490	432
2024	520	48	249.6	540	462

Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari - yalpi hududiy mahsulot hajmi, yashil investitsiyalar miqdori, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, chiqindilarni qayta ishlash darajasi va energiya samaradorligi indeksi keltirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar viloyatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining iqtisodiy va ekologik dinamikasini aniqlash, strategik menejment siyosatining samaradorligini baholash hamda korxonalar faoliyatida barqaror rivojlanish tamoyillarining qanchalik chuqur integratsiyalashganini tahlil qilish imkonini beradi (1-jadval).

2015-2024-yillar oralig‘idagi tahlil natijalari Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlarining barqaror o‘shishini aniq tasdiqlaydi. Yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmi 19,8 trln so‘mdan 41,5 trln so‘mga oshib, o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 8,5 foizni tashkil etdi. Yashil investitsiyalar hajmi 210 mlrd so‘mdan 1 230 mlrd so‘mga oshib, 10 yil davomida qariyb 5,9 barobar ko‘paygan. Bu holat iqtisodiy siyosatning ekologik yo‘nalishga o‘tishining natijasi bo‘lib, 2019-yildan boshlab qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”ning amaliy ta‘sirini ko‘rsatadi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi ham jadal o‘shib, 2015-yildagi 2,5 foizdan 2024-yilda 10,2 foizga yetdi. Bu 7,7 foizlik sof o‘shish viloyatda quyosh panellari, kichik GES va

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

biomassa texnologiyalarining joriy etilayotganini anglatadi. Ushbu ko'rsatkichlar energetika sektorida barqaror o'sish yo'lga qo'yilganini va sanoat korxonalarining energiya manbalarini diversifikatsiya qilishga intilayotganini bildiradi.

Ekologik samaradorlik indikatorlari ham ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash darajasi 8,1 foizdan 29,4 foizgacha oshib, bu sohada 3,6 barobarlik o'sish qayd etildi. Bu o'zgarish, bir tomondan, chiqindilarni qayta ishlovchi kichik va o'rta korxonalar sonining ortishi bilan, ikkinchi tomondan, sanoat chiqindilarini saralash va ikkilamchi xomashyo sifatida qayta foydalanish tizimining shakllanishi bilan bog'liq. Energiya samaradorligi indeksi 2015-yilga nisbatan 45 punktga yaxshilangan bo'lib, bu ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va raqamli monitoring dasturlarining joriy etilayotganini ko'rsatadi. Ushbu o'zgarishlar yashil investitsiyalar hajmining ortishi bilan yuqori korrelyatsiyada bo'lib, strategik menejmentning ekologik komponentlari viloyat iqtisodiy siyosatiga integratsiyalashayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan, Namangan viloyati yashil iqtisodiyotning regional modeli sifatida O'zbekistonning boshqa hududlari uchun ilg'or tajriba vazifasini bajarishi mumkin.

2017-2024-yillarda Namangan viloyati tumanlari kesimida xorijiy investitsiyalar o'sish sur'atlari, kichik biznesda bandlik darajasi va eksport salohiyati dinamikasi o'rtasida sezilarli ijobiy bog'liqlik kuzatildi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'sishining o'rtacha yillik sur'ati 15-18 foiz oralig'ida shakllangan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kosonsoy va Namangan shahri hissasiga to'g'ri kelgan. Ushbu hududlarda investitsion faollikning yuqori bo'lishi qayta ishlash sanoati, to'qimachilik va agroklaster yo'nalishlariga kapital oqimining ortishi bilan izohlanadi(2-jadval).

## 2-jadval

### 2024-yilda KO'Bga yo'naltirilgan TTHning tumanlar kesimidagi taqsimoti<sup>1</sup>

Tuman/shahar	TTHI, mln AQSH dollar	KO'B ulushi, foizda	Xorijiy kapital ishtirokidagi KO'B, dona	TTHI/KO'B, ming AQSH dollar
Namangan shahar	52	20,8	110	473
Pop	30	12,0	65	462
Kosonsoy	28	11,2	55	509
Chust	26	10,4	52	500
Chortoq	24	9,6	48	500
Uychi	22	8,8	60	367
To'raqo'rg'on	20	8,0	50	400
Yangiqo'rg'on	18	7,2	40	450
Norin	15	6,0	30	500
Mingbuloq	14	5,6	30	467
<b>Jami</b>	<b>249,6</b>	<b>100</b>	<b>540</b>	<b>462</b>

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati tumanlari iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha statistika boshqarmasi hamda Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Kichik biznes sohasida bandlikning 21-22 foizgacha oshgani xorijiy investitsiyalarning yangi ish o‘rinlari yaratishdagi ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, eksport hajmining 26-27 foizgacha kengayishi xorijiy investitsiyalar asosida amalga oshirilgan loyihalar mahsulot sifati va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kuchaytirganini ko‘rsatadi. Mazkur tendensiya iqtisodiy nuqtai nazardan investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, natijada eksport salohiyati va hududiy iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qilganini anglatadi.

Namangan viloyatining boshqa tumanlarida esa (Uychi, To‘raqo‘rg‘on, Mingbuloq) TTHI o‘shish sur‘ati 14-15% atrofida bo‘lib, bu hududlarda kapitalning texnologik darajasi pastligi va ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Ularning eksport o‘shishi ham 19-20% diapazonida, ya‘ni yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish ulushi hali yetarli darajada emas. Ushbu tafovutlar Namangan viloyati tumanlari o‘rtasida investitsion samaradorlik nomutanosibligini keltirib chiqarmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, TTHI o‘shish sur‘ati bilan eksport o‘shishi o‘rtasida  $r = 0,87$ , TTHI o‘shishi bilan bandlik o‘shishi o‘rtasida esa  $r = 0,81$  miqdorida kuchli musbat korrelyatsiya mavjud. Bu shuni anglatadiki, xorijiy sarmoya oqimi faqat moliyaviy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga ham yuqori darajada ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, past o‘rtacha yillik murakkab o‘shish sur‘ati (CAGR) qayd etilgan hududlarda investitsion rag‘batlar, soliq yengilliklari va infratuzilma modernizatsiyasi orqali kapital samaradorligini oshirish zarur.

### 3-jadval.

#### 2017-2024 yillarda tumanlar bo‘yicha TTHI va natija ko‘rsatkichlari o‘shish sur‘atlari<sup>1</sup>

Tuman/shahar	TTHIning yillik o‘rtacha o‘shishi, foizda	KO‘B bandlik o‘shishi, foizda	KO‘B eksport o‘shishi, foizda
Namangan shahar	17,5	21	26
Pop	16,2	19	24
Kosonsoy	18,0	22	27
Chust	16,8	18	23
Chortoq	16,5	17	22
Uychi	14,0	15	19
To‘raqo‘rg‘on	15,2	16	20
Yangiqo‘rg‘on	15,8	17	21
Norin	16,0	18	22
Mingbuloq	14,8	16	20

2017-2024-yillar oralig‘ida Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha xorijiy investitsiyalar o‘shish sur‘atlari, kichik biznesda bandlik darajasi va eksport salohiyati o‘rtasida yuqori darajadagi o‘zaro bog‘liqlik kuzatildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 15-18 foiz oralig‘ida shakllanib, eng

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati tumanlari iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

yuqori ko'rsatkichlar Kosonsoy, Namangan shahri va Chust tumanlarida qayd etildi. Mazkur hududlarda xorijiy kapital asosan qayta ishlash sanoati, to'qimachilik, oziq-ovqat ishlab chiqarishi va agroklaster yo'nalishlariga yo'naltirilgan(3-jadval).

Shu davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida bandlik darajasi 15-22 foizgacha kengaygani investitsiyalarning iqtisodiy samarasi bilan bir qatorda ijtimoiy ahamiyati ham yuqori ekanini ko'rsatadi. Eksport hajmining 19-27 foiz oralig'ida o'sgani, ayniqsa Kosonsoy va Namangan shahrida yuqori natijalar kuzatilgani xorijiy investitsiyalar hisobiga ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sifati oshganini anglatadi. Bu esa hududlarda eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar rivojlanib, ishlab chiqarishning diversifikatsiyalanish jarayoni kuchayganini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar TTHI o'sishi bilan eksport o'sishi o'rtasida  $r = 0,87$ , TTHI o'sishi bilan bandlik o'sishi o'rtasida esa  $r = 0,81$  miqdorida kuchli musbat korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatdi. Bu shuni anglatadiki, xorijiy sarmoya faqat kapital qo'shish bilan cheklanmay, iqtisodiy faollikni kengaytiruvchi multiplikativ effektini ham yuzaga keltirgan. Pastroq o'sish sur'atlari (Uychi - 14,0%, Mingbuloq - 14,8%) qayd etilgan tumanlarda texnologik modernizatsiya darajasining pastligi, ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli emasligi hamda innovatsion biznes loyihalar ulushining kamligi asosiy tormozlovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillardan kelib chiqib, Namangan viloyatining 2024-yil uchun investitsion muhitini baholashda Investitsion Samaradorlik Indeksi (ISI) iqtisodiy faoliyatning sifat darajasini aniqlovchi muhim tahliliy ko'rsatkich sifatida ishlatildi. Ushbu indeks faqat xorijiy investitsiyalar hajmini o'lchash bilan cheklanmay, ularning iqtisodiy natijadorligi, eksport rentabelligi va bandlikka qo'shgan ijtimoiy hissasini kompleks tarzda baholaydi.

Investitsion Samaradorlik Indeksi (ISI) formulasi hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholash uchun ishlab chiqilgan integral o'lchov bo'lib, u sarmoyaning iqtisodiy, ijtimoiy va ishlab chiqarish samaralarini kompleks tarzda aks ettiradi. Indeks quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$ISI_i = 0.4Z_1 \left( \frac{Eksport_i}{FDI_i} \right) + 0.3Z_2(GVA_i) + 0.3Z_3(EL_i)$$

$ISI_i$  - *Investitsion Samaradorlik Indeksi* (i-hudud bo'yicha). Bu ko'rsatkich tuman yoki shahar kesimida xorijiy investitsiyalarning umumiy samaradorlik darajasini 0 dan 1 gacha oraliqda ifodalaydi. Yuqori qiymat (0,8-1,0) yuqori investitsion qaytarim va iqtisodiy faollikni bildiradi.

$FDI_i$ - Foreign Direct Investment (i-hududdagi xorijiy bevosita investitsiyalar hajmi, mln AQSh dollari). Bu kapitalning hajmini bildiradi va indeksda asosiy moliyaviy manba sifatida ishtirok etadi.

$Eksport_i$ - *i-hududdagi eksport hajmi* (mln AQSh dollari). Ushbu o'zgaruvchi FDI bilan bog'liq holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tashqi bozorlarga chiqish hajmini ko'rsatadi.

$GVA_i$ - Gross Value Added, ya'ni kichik biznes subyektlarining yalpi qo'shilgan qiymati yoki ularning ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi (foizda). Bu qiymat iqtisodiy o'sish sur'atini va sarmoyaning ichki iqtisodiyotga ta'sirini baholaydi.

$EL_i$ - Employment Elasticity, ya'ni bandlik elastikligi. Bu ko'rsatkich xorijiy investitsiya hajmidagi o'zgarishlarga nisbatan bandlikning sezgirlik darajasini bildiradi (foiz yoki koeffitsiyent shaklida).

$Z_1, Z_2, Z_3$ - mos ravishda normallashtirilgan qiymatlar bo'lib, ular min-max standartlashtirish usuli bilan 0-1 oralig'iga keltiriladi.

$$Z_j(x_i) = \frac{x_i - \min(x)}{\max(x) - \min(x)} \quad (\text{bu yerda } j = 1, 2, 3)$$

Og'irlik koeffitsiyentlari: 0.4- eksportdan investitsiyaga nisbati uchun og'irlik; 0.3 - GVA o'sish sur'ati uchun og'irlik; 0.3 - bandlik elastikligi uchun og'irlik.

Bu yerda har bir o'zgaruvchi investitsiyaning iqtisodiy (kapital rentabelligi), ishlab chiqarish (qo'shilgan qiymat o'sishi) va ijtimoiy (bandlik) samaradorlik jihatlari birlashtirib, hududiy investitsion faollikning integral bahosini beradi.

2017-2024 yillar davomida Namangan viloyatida xorijiy investitsiyalar oqimining o'sishi kichik biznes faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Jadval va formulalarda keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, TTHI hajmi 16 foizlik o'rtacha yillik o'sish bilan KO'B sektoriga chuqur kirib bordi, natijada korxonalar soni, bandlik va eksport salohiyati barqaror sur'atlarda kengaydi. Tumanlar kesimida investitsiya oqimining notekis taqsimlanishi bilan birga, yuqori TTHIga ega hududlarda ishlab chiqarish samaradorligi va eksport rentabelligi ham oshgani kuzatildi. Hisoblangan Investitsion Samaradorlik Indeksi (ISI) esa bu jarayonning iqtisodiy natijadorligini va ijtimoiy natijalarini kompleks tarzda aks ettirib, Kosonsoy, Namangan shahri va Pop tumanlari viloyatdagi eng yuqori samaradorlik darajasiga ega hududlar ekanini ko'rsatdi. Tahlil natijalari xorijiy investitsiyalar kichik biznesning texnologik yangilanishini tezlashtirganini, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish ulushini oshirganini hamda mintaqaviy iqtisodiy faollikni barqarorlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2017-2024 yillar davomida Namangan viloyatida xorijiy investitsiyalar oqimi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion faolligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Kichik biznes sektori xorijiy kapitalni o'zlashtirish darajasi, investitsion qaytarim va iqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan mintaqadagi o'sishning asosiy drayveriga aylandi.

Birinchiidan, 2017-2024 yillar oralig'ida Namangan viloyatida FDI hajmi 180 mln AQSh dollaridan 520 mln dollargacha o'sib, yillik o'rtacha o'sish sur'ati 16 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi to'rt baravar ko'paydi. Ushbu o'sish viloyat iqtisodiyotida kapital chuqurlashuvi jarayonini tezlashtirib, ishlab chiqarish samaradorligini 1,8 baravar, eksport hajmini esa 2,5 baravar oshirdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi kichik korxonalar soni 220 tadan

540 tagacha yetib, ularning iqtisodiy salohiyatidagi kengayish barqaror investitsion muhit shakllanganini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, tumanlar kesimida olingan tahlillar investitsiya oqimlarining notekis taqsimlanishini aniqladi: yuqori TTHIga ega Kosonsoy, Namangan shahri va Pop tumanlari yuqori ishlab chiqarish intensivligi va eksport rentabelligi bilan ajralib turdi. Bu hududlarda xorijiy kapitalning "multiplikativ ta'siri" kuchli bo'lib, u bandlik darajasining 20 foizdan ortiq o'sishiga sabab bo'ldi. Pastroq o'sish sur'atlari qayd etilgan Uychi, To'raqo'rg'on va Mingbuloq tumanlarida esa texnologik yangilanishning sustligi va moliyaviy infratuzilmaning zaifligi investitsion samaradorlikni cheklovchi omil bo'lib qoldi.

Uchinchidan, tadqiqotda ishlab chiqilgan Investitsion Samaradorlik Indeksi (ISI) modeli xorijiy sarmoyaning iqtisodiy va ijtimoiy natijadorligini baholashda universal indikator sifatida o'zini oqladi. ISI 0-1 oraligida o'lchandi va 2024-yilda Kosonsoy (0,88), Namangan shahri (0,86) hamda Pop tumani (0,82) eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi. Indeksning yuqori qiymatlari TTHI oqimining eksport salohiyati, qo'shilgan qiymat va bandlik elastikligi bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. ISI'ning matematik modelini tatbiq etish mintaqaviy investitsion siyosatda obyektiv baholash tizimini yaratadi hamda investitsiyalar samaradorligini tahlil qilishda yangi bosqichni boshlab beradi.

To'rtinchidan, past ISI ko'rsatkichlariga ega tumanlarda (Uychi, To'raqo'rg'on, Mingbuloq) investitsion samaradorlikni oshirish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur: (1) ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, (2) xorijiy sarmoyadorlar uchun soliq yengilliklari va grant mexanizmlarini joriy etish, (3) texnologik klasterlar yaratish orqali resurslarni integratsiyalash, (4) davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida moliyaviy risklarni kamaytirish. Bandlik va ijtimoiy samaradorlikni oshirish uchun yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash lozim.

Beshinchidan, ISI ko'rsatkichini doimiy investitsion monitoring tizimiga integratsiya qilish viloyat darajasida investitsion siyosatning samaradorligini baholash, nomutanosibliklarni aniqlash va resurslarni oqilona taqsimlash imkonini beradi. Bu esa kelgusida investitsion faoliyatni raqamli tahlilga asoslangan tizimga o'tkazish uchun zarur ilmiy-amaliy zamin yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.
2. UNIDO. Industrial Development Report 2024: Investment for Sustainable Industrial Transformation. Vienna: UNIDO, 2024.
3. World Bank. Global Investment Competitiveness Report 2024. Washington, DC: The World Bank Group, 2024.
4. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investing in Sustainable Value Chains. Geneva: UNCTAD, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil investitsion siyosat bo‘yicha murojaati, Prezident.uz, 2024.
7. OECD Eurasia Competitiveness Programme. Investment Policy Review of Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2023.
8. Lee, H.-S., Chernikov, S. U., & Nagy, S. (2022). Motivations and locational factors of FDI in CIS countries: Empirical evidence from South Korean FDI in Kazakhstan, Russia, and Uzbekistan. Preprint, Seoul National University Press.
9. Muneeb, F. M. (2025). Small and medium-sized enterprises in emerging markets: critical success factors. *Journal of Emerging Market Economics*, Tandfonline, Vol. 14, No. 2.
10. Otabaev, Y. (2025). The impact of foreign capital on the development of small business in Uzbekistan. InLibrary UZ, Tashkent State University of Economics Publishing.
11. Gyan, S. (2023). Boosting Local Startups and SMEs While Posing Challenges: FDI Impacts on Startup Businesses. MPRA Working Paper Series, University of Munich, No. 118384.
12. D’Ambrosio, A. (2022). The impact of FDI on entrepreneurship in Uzbekistan. Doctoral Thesis, University of Rome “La Sapienza”, Faculty of Economics.
13. Nguyen, N. M. (2024). The impact of FDI on R&D investment of small and medium enterprises. *Journal of International Business and Innovation*, Elsevier ScienceDirect, Vol. 11, No. 4.
14. Suyunov, A. (2022). Do foreign direct investments and bank credits affect employment in Uzbekistan? *Journal of Economic Development*, Vol. 29, Issue 3, Tashkent State University of Economics.
15. OECD. (2023). Insights on the Business Climate in Uzbekistan. OECD Publishing, Paris, Eurasia Competitiveness Programme Report.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**